



THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF GENERAL HISTORICAL SOURCES IN THE STUDY OF THE HISTORY OF SAMANID STATEHOOD

Mokhlaroy Abdukamolova

Doctoral Researcher (PhD Candidate) at Fergana State University

E-mail: mohlaroyabdukamolova@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Samanid State, Mawarannahr, Khorasan, state administration, political elite, Turkic hajibs, universal history, Arabic and Persian sources, source studies, al-Tabari, Ibn al-Athir.

Received: 12.06.26

Accepted: 13.06.26

Published: 14.06.26

Abstract: This article analyzes the role of Arabic and Persian universal historical sources in studying the history of the Samanid state (819–999). The study examines the formation of the Turkic hajib elite and their influence on the state's political life, based on the works of authors such as al-Baladhuri, al-Tabari, Ibn al-Athir, al-Utbi, Bayhaqi, and Mirkhond. Furthermore, a comparative analysis is conducted on unique data regarding the governors of Fergana, court intrigues, and the relations between hajibs and viziers. The article serves the research of the history of statehood and military aristocracy during the Samanid period.

SOMONIYLAR DAVRI DAVLATCHILIGI TARIXINI O'RGANISHDA UMUMTARIX YO'NALISHIDAGI MANBALARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Moxlaroy Abdukamolova

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

mohlaroyabdukamolova@gmail.com

Farg'ona, Uzbekistan

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Somoniylar davlati, Movarounnahr, Xuroson, davlat boshqaruvi, siyosiy elita, turkiy hojiblar, umumtarix, arab va fors tillaridagi manbalar, manbashunoslik, Tabariy, Ibn al-Asir.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Somoniylar davlati (819–999) tarixini o'rganishda arab va fors tillaridagi umumtarix yo'nalishidagi manbalarning o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda Balazuriy, Tabariy, Ibn al-Asir, Utbiy, Bayhaqiy va Mirxond kabi mualliflarning asarlarida Somoniylar boshqaruv tizimi, xususan, turkiy hojiblar

elitasining shakllanishi hamda ularning davlat siyosiy hayotidagi nufuzi masalalari yoritilgan. Shuningdek, manbalarda keltirilgan noyob ma'lumotlar, jumladan, Farg'ona noiblari, saroy fitnalari hamda hojiblar va vazirlar o'rtasidagi munosabatlarga oid faktlar qiyosiy o'rganilgan. Maqola Somoniylar davri davlatchiligi va harbiy aristokratiyasi tarixini tadqiq etishga xizmat qiladi.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ОБЩЕИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ИСТОРИИ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ ЭПОХИ САМАНИДОВ

Мохларой Абдукамолова

Базовый докторант Fergana State University

E-mail: mohlaroyabdukamolova@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Государство Саманидов, Мавераннахр, Хорасан, государственное управление, политическая элита, тюркские ходжибы, всеобщая история, арабо- и персоязычные источники, источниковедение, ат-Табари, Ибн ал-Асир.

Аннотация: В данной статье анализируется роль арабских и персидских всеобщих исторических источников в изучении истории государства Саманидов (819–999). В исследовании рассматриваются вопросы формирования элиты тюркских ходжибов и их влияния в политической жизни государства на основе трудов таких авторов, как ал-Балазури, ат-Табари, Ибн ал-Асир, ал-Утби, Байхаки и Мирхонд. Также проведен сравнительный анализ уникальных сведений о наместниках Ферганы, дворцовых интригах и взаимоотношениях между ходжибами и визирями. Статья служит делу исследования истории государственности и военной аристократии периода Саманидов.

Kirish. O'rta asrlar Sharq davlatchiligi tarixida Somoniylar davri (819–999) nafaqat madaniy va iqtisodiy yuksalish, balki o'ziga xos boshqaruv tizimi shakllangan bosqich sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, ushbu davlatning siyosiy hayoti va harbiy boshqaruvida turkiy hojiblar elitasining o'rni hamda ularning davlat iyerarxiyasidagi nufuzi tadqiqotning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Somoniylar davlat boshqaruvida turkiy hojiblar elitasining shakllanishi va ularning siyosiy jarayonlardagi o'rnini o'rganishda arab va fors tillaridagi tarixiy asarlar asosiy poydevor hisoblanadi. Ushbu manbalar orasida umumtarix tipida yaratilgan asarlar alohida o'rin tutadi.

Asosiy qism. Umumtarix yo‘nalishidagi asarlar voqealarni dunyoning yaratilishidan boshlab muallif yashagan davrgacha, xronologik izchilikda bayon etishi bilan ajralib turadi. Bunday asarlar nafaqat bir hudud, balki Arabiston, Kichik Osiyo, Eron va Movarounnahr kabi keng geografik hududlardagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni qamrab oladi.

Ushbu manbalarga Balazuriyning “Futuh al-buldon”, Zofir al-Azdiy qalamiga mansub “Axbor al-duval al-islomiyya”, Tabariyning “Tarixi ar-rusul va-l-muluk”, Utbiyning “Tarixi Yaminiy”, Ibn al-Asirning “Al-komil fi-t-tarix”, Rudrovariyning “Kusuf al-xalifatun al-Abbosiyya”, Ibn Xaldun qalamiga mansub “Kitab al-‘Ibar”, Bal’amiyning fors tilidagi “Tarix ul-anbiyo va-r-rusul va-l-xulofo”, Abulfazl Bayhaqiy tomonidan fors tilida yozilgan “Tarixi Mas’udiy”, Minxojiddin Sirojiddin Juzjoniyning “Tabaqoti Nosiriy”, Qazviniyning “Tarix-i Guzida”, Mirxondning “Ravzat us-safo” asarlarini kiritishimiz mumkin.

Balazuriy IX asrda yashagan tarixchi va geograf olim, musulmon tarixchilarining dastlabkisi hisoblangan Madoiniyning shogirdidir. Uning biz uchun eng muhim asari “Kitob futuh al-buldon” (“Mamlakatlarning zabt etilishi”) Arab xalifaligining O‘rta Osiyoga bir asr davomida amalga oshirgan istilochilik yurishlari tarixini o‘rganish bo‘yicha asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarning arab tilidagi tanqidiy matni de Gue tomonidan Leydenda 1866-yilda nashr etilgan [8]. “Kitob futuh al-buldon”ning Xuroson istilosi qismi tojikistonlik olim G.Goipov, Sh.Zakirov [1; 123-235] tomonidan rus va Sh.Kamoliddin tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Asarda Somoniylarning hokimiyatga kelishi masalasi alohida qayd etilgan.

XX asrning ikkinchi yarmigacha fanga ma’lum bo‘lmagan manbalardan biri Jamoliddin Ali ibn Zofir al-Azdiy qalamiga mansub “Axbor al-duval al-islomiyya” (“Islom davlatlar xabarlar”) asari hisoblanib, unda Somoniylarga bag‘ishlangan bob o‘rin olgan. Mazkur bobdagi ma’lumotlarning katta qismi avvaldan fanda ma’lum bo‘lgan manbalarda keltirilgan. Shunga qaramay asarda Ahmad ibn Ismoilning (vafoti 914-yil) o‘ldirilishiga olib kelgan voqealar hamda Nasr ibn Ahmadning taxtga chiqishi jarayonini aks ettiruvchi noyob ma’lumotlar ham mavjud [7]. Ibn Zofir ushbu parchaning bevosita manbasini ko‘rsatmaydi. Tarixchi olim L.Tredvelning fikriga ko‘ra, Ibn Zofir asarini yozishda Sobit ibn Sinon as-Sabiy asaridan foydalangan [24; 297-419]. Ibn Zofir ikki o‘rinda – bir marta Somoniylar bobida, yana bir marta Buvayhiylar bobida Sobit ibn Sinon as-Sabiyning “G‘ars an-Ni‘ma” asaridan iqtibos keltirayotganini aytadi. Asarning Somoniylar qismida hojiblar Bars, Muhammad ibn Bashr, Abulabbos Tosh, Bektuzun, Foiq al-Xossa tarixi va ularning davlat hamda qo‘shin boshqaruvida ishtiroki masalalari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan [7; 18-37].

Tabariyning “Tarixi ar-rusul va-l-muluk” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi”) asari umumiy tarix yo‘nalishida yozilgan bo‘lsa-da, keltirilgan faktik materiallarning boyligi

bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Unda olamning yaratilishidan 912–913-yillargacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida Arabiston, Kichik Osiyo, Arab xalifaligi, O‘rta Osiyoda sodir bo‘lgan voqealar to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar mavjud. Asarda, shuningdek qadimgi Eron podshohlari, Rim va Vizantiya imperatorlari, xalifalik hududidagi yurtlar: xususan, Xuroson va Movarounnahrning tarixi o‘z ifodasini topgan. “Tarixi ar-rusul va-l-muluk” asari XIX asrda eski o‘zbek va uyg‘ur tillariga tarjima qilingan [4; 5-18]. 1989-yilda asarning qisqartirilgan tarjimasi V.I.Belyaev va O.G.Bolshakovlar tomonidan rus tilida nashr etildi. Asarning bizgacha yetib kelgan to‘liq nusxasining ingliz tiliga qilingan tarjimasi Nyu-York shahrida 40 jildda nashr etilgan [18]. Ushbu nashr asarning eng mukammal tarjimasi bo‘lib, undan turk [19] va rus tillariga qilingan tarjimalarga kiritilmagan Xuroson va Movarounnahr tarixiga oid eng qimmatli ma‘lumotlar o‘rin olgan. Asarda hojiblar siyosiy elitasining shakllanishiga oid muhim ma‘lumotlar keltirilgan.

Abu Nasr Muhammad ibn Abduljabbor Utbiy (X–XI asrlar) asli Ray shahridan bo‘lib, badavlat va zodagon oilaga mansub edi. Utbiy o‘z hayoti davomida Somoniylar, Ziyoriyalar va G‘aznaviylar saroyida xizmat qilgan. Bizgacha Utbiyning “Tarixi Yaminiy” asari yetib kelgan. Bu asarda muallif Sabuqtegin va Sulton Mahmudlar zamonida G‘aznaviylar davlatida ro‘y bergan siyosiy voqealarni bayon etadi. Asarning arabcha matni va forsiy tarjimalari bir necha marotaba nashr qilingan [6]. Shuningdek, asarning J.Reynold tomonidan amalga oshirilgan inglizcha tarjimasi ham bor [9]. Asarda keltirilgan Xuroson va Movarounnahr X asr tarixiga oid ma‘lumotlar boshqa manbalarda yo‘q. Masalan, Farg‘onaning somoniylar davridagi so‘nggi turkiy noibi hojib Ayachtegin to‘g‘risidagi ma‘lumotlar boshqa o‘rta asr tarixchilarining asarlarida uchramaydi [9; 188]. Shu bilan birga, asarda qayd etilishicha, Somoniy amir Mansur ibn Nuh o‘z birodari Abdulmalik buyrug‘i bilan hojiblar Foyiq hamda Bektuzun tomonidan taxtdan tushirilgan va ko‘r qilingan.

Yirik arab tarixchisi Izaddin ibn al-Asir al-Jazariy (1160-1234) bir necha tarixiy asarlar yozib qoldirgan. Biz uchun uning “Al komil fi-t-tarix” (“Mukammal tarix”) nomli 12 jildlik asari muhimdir. Asarning 1-6-jildlari kompilyasiya bo‘lib, muallif Tabariy, ibn Miskavayx, as-Sulamiy va boshqalarning asarlaridan keng foydalangan. Asarning 7-12-jildlari mustaqil ahamiyatga ega bo‘lib, 924-1231-yillar orasida Sharq mamlakatlari, jumladan Markaziy O‘rta Osiyoda bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Bu qism asosan qo‘lyozma manbalar, shuningdek, tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari bilan to‘plangan faktik materiallar asosida yozilgan. Asarning alohida mamlakatlar va xalqlar tarixiga bag‘ishlangan ayrim qismlari turli davrlarda rus, fransuz, daniya tillarida (Sankt Peterburg, Jazoir, Kopengagen, Istanbul, Moskva, Boku, Dushanbe va Toshkent) nashr

qilindi. Asar to'liq holatda faqat turk tiliga tarjima qilingan [14]. 1851-1876-yillar oralig'ida S.J.Tornberg tomonidan 14 jilddagi tanqidiy matni nashr etilgan [15]. "Al komil fi-t-tarix"ning O'rta Osiyoga tegishli qismlari P.G.Bulgakov va uning shogirdi Sh.Kamoliddinlar tomonidan rus tiliga o'girilib, Toshkentda 2006-yilda nashr etildi [3]. Ibn al-Asir qalamiga mansub ushbu asarning Xiva xonligida Muhammad Rahimxon II zamonida o'zbek tiliga qilingan tarjimalari ham mavjud [21]. Faqatgina shu asarda tarqoq holda bo'lsa-da, Xuroson va Movarounnahr arablar istilosidan boshlab to Somoniylar davlatining tugatilishigacha bo'lgan davrga oid ma'lumotlar qayd etilgan. Unda keltirilgan Farg'onaning somoniylar davridagi dastlabki turkiy noibi Shukurtegin va uning vorisi Bakr Farg'oniy to'g'risida keltirilgan ma'lumot boshqa tarixiy manbalarda uchramadi [3; 116]. Boshqa turkiy hojiblar, jumladan, Jurjonni idora etgan Bars al-Kabir va Abu-l-Abbos Tosh, shuningdek, Foiq al-Xossa, Bektuzunlarning faoliyati ham ancha keng va tartibli yoritilgan. Masalan, Amir Ismoil Muhammad ibn Zaybdan Jurjonni olgach, o'g'li Ahmadni u yerga voliy qilib tayinlagan, ammo keyin Bars al-Kabirni tayinlagan edi. Bars qo'lida Ray, Tabariston va Jurjon soliqlaridan yig'ilgan, miqdori sakson yuk (vakr)ga yetadigan katta miqdordagi pul yig'ilgan edi. U bu pullarni Ismoilga yuborish uchun yo'lga chiqargan, ammo uning vafoti haqida xabar olgach, yuborishdan voz kechib, pullarini qaytarib olmoqchi bo'ldi. Ahmad u yerga borish uchun yo'lga chiqqanida, u qo'rqib, al Muktafiyga maktub yozib, unga panohtopmoqchi ekanini bildirdi. Shu bilan birga, Abu-l-Abbos Toshning Jurjonda vabodan o'lganligi ham keltirilgan.

XI asrda yashagan yana bir arab tarixchisi Zahiruddin Abu Shujo Muhammad ibn Al-Husayn Rudrovari bo'lib, Abbosiy xalifa Ja'far al-Muqtadir (908-929, 929-932) saroyida vazir sifatida faoliyat yuritgan. Uning "Kusuf al-xalifatun al-Abbosiyya" ("Abbosiy xalifaligining tutilishi") nomli asarida Somoniylar davlatida yuqori darajadagi siyosiy ta'sirga ega bo'lgan hojib Tosh to'g'risidagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan [17]. Jumladan, Tosh Jurjonga kelgach, Faxr ud-Davla uni shu yerga hokim etib tayinladi va unga soliq yig'ish huquqini berdi. Fahr ud-davlaning o'zi esa Rayga chekinib ketadi. Tosh Jurjonda vafotigacha hokimlik qildi, ayrimlar uning o'limini zaharlanish bilan izohlaydilar [17; 99].

Ibn Xaldun (1332-1406) qalamiga mansub "Kitab al-Ibar" ("Ibratli misollar") asarida ham Somoniy davlatida xizmat qilgan hojiblar haqida ma'lumot keltirilgan [16; 278]. Ammo bu ma'lumotlar Ibn al-Asirning Somoniylar haqidagi qaydlarining qisqartirilgan varianti hisoblanadi. Ushbu manba sulola tarixi yuzasidan qo'shimcha ma'lumotlar beradi, biroq ularda ayrim xatolarga ham yo'l qo'yilgan. Jumladan, hojib Bug'roni Qoraxoni Bug'roxon bilan chalkashtirib yuborilgan [25; 18].

Arab tilida yozilgan “Tarixi ar-rusul va-l-muluk” asarining forsiy tahriri ham bo‘lib, u Somoniy hukmdor Mansur ibn Nuh (961-976)ning vaziri, atoqli olim va ilm-fan homiysi Bal’amiy tomonidan 963-yilda amalga oshirilgan. Bal’amiy varianti shunchaki tarjima bo‘lmay, balki asarning qayta ishlangan va ayrim hollarda yangi dalillar bilan boyitilgan nusxasidir. Asarning to‘la fransuzcha tarjimasini G.Zotenberg tomonidan 1867-1874-yillarda Parijda nashr etilgan [11]. Bal’amiy tahririning matni Lakhnav va Kanpurda (1874, 1876, 1916) hamda va Tehronda (1962, 1967) chop etilgan. Asarda keltirilgan Xuroson va Movarounnahrning Muqanna qo‘zg‘oloni vaqtidagi holati to‘g‘risidagi faktlar “Tarix ar-rusul va-l-muluk”ning arab tilidagi variantida uchramaydi.

Bal’amiy Abu Ali Muhammad ibn Muhammad X asrda o‘tgan buxorolik tarixnavis va davlat arbobi. Abu Ali Muhammad ibn Muhammad Bal’amiy Marvga qarashli Bal’amon qishlog‘ida tug‘ilgan. Somoniy amirlaridan Abdumalik ibn Nuh (954–961) hamda Abu Solih Mansur I (961–976)larning bosh vaziri bo‘lib xizmat qilgan. Bal’amiy yuqori darajadagi mansabdor sifatida emas, balki tarixshunos olim sifatida shuhrat topdi. U mashhur arab tarixchisi Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839–923)ning “Tarix ul-anbiyo va-r-rasul va-l-xulofa” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi”) nomli mashhur asarini fors tilida muxtasar qilib qaytadan yozgan (963-yil yozib tamomlagan). Mazkur asar Sharqda IX asrgacha bo‘lgan siyosiy voqealarni o‘zida aks ettirgan, O‘rta Osiyoda yangi fors tilida bitilgan birinchi asar bo‘lib, Tabariyning arab tilida yozilgan va Leydenda (1879–1889) nashr etilgan yuqoridagi asariga qaraganda aniq ma’lumotlarga boy va ayrim hollarda mufassalroqdir. Unda, birinchidan, qisqartirilgan tahrirda uchramaydigan ma’lumotlar bor. Ikkinchidan, Bal’amiy nusxasi boshqa manbalar asosida yangi ma’lumotlar bilan to‘latilgan. Aftidan, Bal’amiy Tabariy asarining avvalgi to‘laroq nusxalaridan foydalangan. Mazkur asar olamning yaratilishidan to 912–913-yillargacha Arabiston, Rum (Kichik Osiyo), Eron va arab xalifaligi qo‘l ostidagi mamlakatlarda, shuningdek, Movarounnahrda bo‘lib o‘tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar haqida hikoya qiladi. Voqealar yilma-yil, xronologik tartibda bayon etilganki, bu o‘z navbatida asardan foydalanishni birmuncha osonlashtiradi. Asarning nusxalari Rossiya, Eron, Turkiya, Iroq, Arabiston (Quddus), Hindiston, Angliya, Gollandiya, Fransiya, AQSh va boshqa mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda. Asardan ayrim parchalar ingliz (1798, 1811–1821, 1824, 1903-yillar), fransuz (1836, 1867–1874), turk (1844), eski o‘zbek (1913), uyg‘ur (XVIII asr) va urdu (1870) tillariga tarjima qilingan.

“Tarixi Mas’udiy” XI asrda tarixchi Abulfazl Bayhaqiy tomonidan fors tilida yozilgan tarix kitobi. Katta hajmli bu asarning ko‘p qismi yo‘qolgan, biroq u Somoniylarning so‘nggi davri hamda G‘aznaviylar davlati tarixiga oid eng muhim manbalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Asar Gʻaznaviyalar kansleriyasida kelib chiqishi turklardan boʻlgan gʻaznaviy hukmdorlarini Eron podshohlari bilan bir qatorga solish maqsadida yozilgan [2; 7-14]. “Tarixi Bayhaqiy” oʻttizta kitobdan iborat, ulardan oltitasigina qolgan. Saqlanib qolgan kitoblarning asosiy mavzusi Gʻaznaviyalar saltanati sultoni Masʻud I hukmronligi davriga oʻdir. Asar 1962-yil Toshkentda soʻz boshi va izohlar bilan rus tilida nashr qilingan. 2020-yil L.Abdukarimov tomonidan “Tarixi Bayhaqiy”ning Xorazm hududi haqidagi qismlari tarjimai oʻzbek tilida nashr etilgan. Asarda Foiq al-Xossa, Abu Ali Simjuriy, Bektuzun va boshqa hojiblar hamda siyosiy elita vakillari haqidagi maʼlumotlar keltirilgan [2; 777-778]. Qolgan fors tilidagi manbalarga qaraganda ushbu asarda maʼlumotlar ancha keng va batafsil bayon qilingan.

“Tarixi Seiston” muallifi nomaʼlum boʻlgan fors tilida yozilgan XI asrga oid asar. Asar shartli ravishda 3 qismga boʻlinadi: birinchi qismi ancha qadimiyroq boʻlib, Seistonning tashkil topishidan arablar fathi; ikkinchi qismi 1053-yildan; yana bir davri 1073-yildan davom etadi. Bundan koʻrinadiki, mualliflar 3ta boʻlgan va oldingi tarixiy asarlardan ham foydalanilgan. Manba qadim zamonlardan to moʻgʻullar istilosigacha boʻlgan Seiston va Eron tarixini ochib berishga qaratiladi va bevosita Xuroson hududlariga oid maʼlumotlar ham berib oʻtiladi. “Tarixi Seiston” 1935-yilda Muhammad Taqi Bahor tomonidan Tehronda nashr etilgan. Asar rus tiliga tarjima qilingan. Shuningdek hojib siyosiy elitasining shakllanish jarayoni toʻgʻrisida muhim maʼlumotlar berilgan [5; 250-317]. Bu maʼlumot asosida hojib elitasi siyosiy va harbiy boshqaruvda Abbosiy xalifalar saroyida Somoniylardan ham avval boʻlganligini, shu bilan birga ayni zamondosh boʻlgan sulola Safforiylarda ham shunday tizim mavjudligi haqida xulosa qilishimiz mumkin. Bundan tashqari, Abul Hasan Simjuriyning Seistonni idora etishi, Abul Husayn al-Utbiyga qarshi suiqasd uyushtirish uchun Foiq al-Hossa bilan maktublar almashinuvi haqidagi maʼlumotlar asardan oʻrin olgan. Abul Xasan Foiq al-Hossa toʻgʻrisida, uning X asrning 70-yillarida Seistonni boshqarishda tutgan oʻrni haqida muhim faktlar keltirilgan [5; 320-321].

“Tabaqoti Nosiriy” Dehli sultoni Nosiruddin sharafiga fors tilida Minxoijiddin Sirojiddin Juzjoni tomonidan yozilgan islom olami tarixi haqidagi asar boʻlib, 1260-yilda yozib tugallangan. 23 tabaqadan iborat boʻlib, oddiy va tushunarli uslubda yozilgan, bu asar ustida Juzjoni koʻp yillar davomida ishlagan va oʻz maʼlumotlariga havolalar ham keltirgan. Kitobning katta qismi Gʻuriylarga bagʻishlangan boʻlsa-da, unda Gʻaznaviyalar sulolasi asoschisi Sabukteginning Gʻaznada hokimiyat tepasiga kelgunga qadar boʻlgan tarixi ham mavjud. Juzjoni “Tabaqoti Nosiriy”ni tuzishda hozirda saqlanib qolmagan boshqa kitoblardan, masalan, Bayhaqiyning Sabuktegin hukmronligi davri haqidagi asarlari, Abulqosim Imadiyning „Tarixi mujadval“ va ehtimol Ibn Haysamning “Qissasi soniy” asarlaridan foydalangan [23]. Abu

Usmon Juzjoniyning “Tabaqoti Nosiriy” asarida ham Somoniylar tarixi haqidagi ma’lumotlar mavjud. Uning Somoniylarga bag‘ishlangan bobi qisqa bo‘lsa-da, boshqa manbalarda uchramaydigan ayrim muhim ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Jumladan, Ahmad ibn Ismoilning o‘ldirilish sabablari hamda Abdulmalik ibn Nuh hukmronligi davrida yuqori martabali amaldorlarga nisbatan ilgari surilgan ismoiliylik ayblovlari shular jumlasidandir [10]. Bundan tashqari, turkiy hojiblar, jumladan, Bakr Farg‘oniy, Foiq al-Xossa, Tosh, Bektuzunlarning faoliyati ham yoritilgan [10; 26-54].

Hamidulloh Mustavfiy Qazviniy (1281-1349) Erondagi Elxoniylar sulolasi ma’muriy tizimida xizmat qilgan amaldor bo‘lib, Rashiddin Hamadoniy G‘azanxonning vaziri homiyligidan bahramand bo‘lgan. U o‘zining “Tarix-i Guzida” (“Tanlangan tarix”) nomli tarixiy asarini hijriy 730-yilda (1329–1330) yozgan [12]. Muallif ko‘plab manbalarga tayanadi, jumladan yuqorida tilga olingan ayrim yilnomalardan ham iqtibos keltiradi. Uning Somoniylar sulolasining dastlabki tarixiga oid bayonida rivoyat ko‘rinishidagi boshqa manbalarda qayd etilmagan ko‘plab tafsilotlar keltiriladi. Biroq sulolaning keyingi davri tarixiga doir qismi bevosita Utbiy asariga asoslangan. Manbada keltirilishicha, Abu‘l-Hasan ibn Simjur Xuroson hokimligidan chetlashtirilib (uning o‘rniga Tosh tayinlanadi), amir Nuhning dushmani Xalafga qarshi yuboriladi. Abu‘l-Hasan ibn Simjur Xalaf bilan kelishuvga erishadi. So‘ngra Foiq bilan til birlashtirib, vazir Abu‘l-Hasan al-Utbiyni o‘ldiradi. Shundan keyin Xurosonda tartibsizliklar boshlanadi. Tosh Nishopurni egallaydi, Foiq Balxni qo‘lga oladi, Abu‘l-Hasan ibn Simjur esa Hirotni nazoratiga oladi [12;75-76]. Bulardan tashqari boshqa Somoniylarga hizmat qilgan hojiblar haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Markaziy O‘rta Osiyoning o‘rta asrlar tarixini tadqiq etishda eng muhim manbalardan biri Mirxond (1433-1498) ning “Ravzat us-safo fi siyrat al-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa” (“Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog‘i”) asaridir. “Ravzat us-safo” Muhammad Mirxond tomonidan Islomning paydo bo‘lishi, dastlabki islom sivilizatsiyasi hamda Eron tarixiga bag‘ishlangan fors tilida bitilgan tarixiy asar. Asar dastlab milodiy 1497-yilda yozila boshlagan. “Ravzat us-safo” 8 jild va xulosadan iborat. Asar juda ilmiy yo‘sinda yozilgan bo‘lib, Mirxond o‘n to‘qqizta yirik arab tarixiy manbalari hamda yigirma ikkita o‘z davrining mashhur fors tarixiy manbalariga murojaat etgan va ba’zida ulardan iqtibos keltirgan.

Tadqiqotimiz uchun kerakli qismi asarning 4-jildidan o‘rin olgan bo‘lib, tarixiy manbalarda nomi kam keltirilgan Farg‘onaning so‘nggi turkiy boshqaruvchisi Ayachtegin Mirxond asarida Inonj hojib tarzida zikr etilgan [20; 24-25]. Mirxondning asari XVI asrda yozilgan va ko‘p qismi kompilyasiya tarzida bayon etilgan yozilgan bo‘lsa ham, ammo unda

boshqa tarixiy manbalarda uchramaydigan ayrim faktlar mavjud. Demak, Mirxond o'z asarini yozishda bizgacha yetib kelmagan boshqa manbalardan ham foydalangan. Asar matni turli yillarda Bombay, Tehron va Lakhnava litografiya usulida chop etilgan. Undan ayrim parchalar fransuz [13], rus, ingliz va nemis tillarida e'lon qilingan. "Ravzat us-safo" Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida eski o'zbek tiliga tarjima qilingan [22].

Xulosa. O'rta asrlar Sharq davlatchiligi tizimida Somoniylar davri boshqaruv institutlarining shakllanishi va taraqqiyoti bevosita arab hamda fors tillaridagi umumtarixiy manbalar bilan bog'liqdir. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Tabariy, Ibn al-Asir, Utbiy va Mirxond kabi mualliflarning asarlari nafaqat xronologik izchilligi, balki Somoniylar saroyidagi turkiy hojiblar elitasining siyosiy iyerarxiyadagi o'rnini yoritishda fundamental ahamiyatga ega. Xususan, manbalarning qiyosiy tahlili natijasida Farg'onaning somoniylar davridagi dastlabki noibi Shukurtegin va uning vorisi Bakr Farg'oniy, shuningdek, so'nggi noibi Ayachtegin (Inonj hojib) kabi boshqa manbalarda deyarli uchramaydigan noyob tarixiy shaxslar faoliyatini tiklash imkoni tug'ildi.

Shu bilan birga, "Tarixi Seiston" va Ibn Zofir al-Azdiy asarlaridagi ma'lumotlar hojiblik institutining harbiy va ma'muriy boshqaruvdagi mavqeyi naqadar yuqori bo'lganini, hattoki ushbu elita vakillari amirlarni taxtdan tushirish (masalan, Mansur ibn Nuhning ko'r qilinishi) yoki vazirlarga qarshi suiqasdlar uyushtirish darajasida siyosiy qudratga ega bo'lganini tasdiqlaydi. Bal'amiyning Tabariy asariga qilgan forsiy tahriri esa o'z davrining shunchaki tarjimasini emas, balki Movarounnahr va Xurosonning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy manzaralarini aks ettiruvchi boyitilgan nusxa ekanligi aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, arab va fors tillaridagi umumtarixiy asarlar Somoniylar davlati siyosiy hayotini o'rganishda nafaqat asosiy poydevor, balki turkiy aristokratiyaning davlat boshqaruvidagi evolyutsiyasini yoritib beruvchi eng ishonchli manbalar tizimi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ал-Балазури. Китаб футух ал-булдан (Книга завоевания стран) Пер. Ш.Закирова // Материалы по этнической истории тюркских народов Центральной Азии. – Ташкент: Фан, 2003. – С. 123–235.
2. Байхаки, Абу-л-Фазл. История Мас'уда (1030–1041) / Пер. с перс., введ., коммен. и прилож. А.К. Арендса. – Москва: Наука, 1969. – 1011 с.
3. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та'рих (Полный свод истории) / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечания и комментарии, введение и указатели Ш.С. Камолиддина. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – 559 с.

4. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. / Составители: Д.Ю. Юсупова, Р.П. Жалилова. – Т: «Фан», 1998. – 534 с.
5. Та’рихи Систан (Истории Систана). Перевод, введение и комментарий Л. П. Смирновой. – М.: Наука, 1974.
6. Чурфодиконӣ, Абушшараф Носеҳ ибни Зафари. Тарчумаи Та’рихи Яминӣ. Муқаддима, таҳия, таҳшия, таълиқот, луғот ва феҳристи Н.И. Ғиёсов. – Хучанд: Ношир, 2013. – 420 с.
7. Al-Azdi. Akhbar al-duwal al-munqatia // Translated by L. Treadwell. Iran. Vol. 4, 2000. – P. 1–37.
8. Al-Balazuri. Liber_expugnationis regionum, auctore Imamo Ahmed ibn Jahja ibn Djabir al-Belol, quem a codice Leidensi et codice Musei Britannici ed. M.J.de Goeje, Lungduni Batavorum, 1866. – 1376 p.
9. Abu Nasr Utbi. Kitobi Yamini. Translated from the Persian version of the contemporary arabic chronicle of Al Utbi, by the rev. James Reynolds, b.a. – London: Printed for the oriental translation fund of Great Britain and Ireland. 1891. – 520 p.
10. Abu Umar ‘Uthman Juzjani. Tabaqat-i nasiri. Translated from persian by Major H.G. Raverty. – London: Gilber&Rivington, 1873. – 768 p.
11. Bal’ami. Chronique de Abou-Djafar-Muhammed-ben-Jarir-ben-Jazid Tabari, traduite sur la version persane d’Abou Ali Mo’hammed Bel’ami, d’apres les manuscrits de Paris, de Gotha, de Londres et de Canterbury par H.Zotenberg, t I-IV, Paris, 1867–1874.
12. Hamdu’llah Mustawfi -i-Qazwini. Ta’rih-i-guzida. Translated from persian by Browne Edward Granville. – Leyden: E.J. Brill; London, Luzac & Co. – 556 p.
13. Historie des Samanides par Mirkhond. Texte persan, traduit et accompagne de notes criticis, historiques et geographiques par M.Defremery. – Parij, 1832. – 312 p.
14. Ibnu’l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi’t Tarih Tercumesi. / Ceviren Yunus Apaydin. – 12 Cilt. – Istanbul: Turkiyat matbaacilik ve nesriyat, 1986.
15. Ibn el-Athiri. Chronicon quod perfectissimum inscribitur, ed.C.J.Tornberg vol.I-XIV, Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876. □I – L.B., 1867: II – L.B., 1868: III – L.B., 1869: IV – L.B., 1870: V – L.B., 1871: VI – L.B., 1871: VII – L.B., 1865: VIII – L.B., 1862: IX – L.B., 1863: X – L.B., 1864: XI – Ups., 1851: Suppl. 1871: XII – Ups., 1853: Suppl. 1871: XIII – L.B., 1874: XIV – L.B., 1876□.
16. Muqaddimat Ibn Khaldūn li-Kitāb al-‘ibar wa-dīwān al-mubtada’ wa-al-Khabar fī ayyām al-‘Arab wa-al-‘Ajam wa-al-Barbar, wa-man ‘āṣarahum min dhawī al-sulṭān al-akbar. – Kohira: al-Maṭaba‘ah al-Bahīyah al-Miṣrīyah, 1900.

17. Rudhrawari, Abu Shuja', Hilal b. Muhassin. The Experiences of the Nations. Edited, translated, and elucidated by H.F.Amedroz and D.S.Margoliouth. – Oxford: Basil Blackwell, 1921. – 504 p.
18. The History of al-Tabari. / Translated by Carole Hillenbrand. – Vol. 1-40. – New York. State University of New York Press, 1985-1999.
19. Taberi. Milletler ve hukumdarlar tarihi. Çeviren Zakir Kadiri Ügan ve Ahmet Temir. 5. Çilt. – Istanbul: Milli eğitim basımevi, 1992.
20. الصفا في سيرة الانبياء و الملوك و الخلفاء. جلد چهارم. بمبي. 1261. 332ص. ميرخواند. روضة
21. Ибн ал-Асир. Тарих Камл (эски ўзбек тилига Домулла Отажон Бакчали таржимаси). ЎЗР ФА ШИ қўлёзма инв. № 824-825.
22. Мирхонд. روضة الصفا. ЎЗР. ФА ШИ , эски ўзбек тилидаги қўлёзма. Инв. №7413, қўлёзма. Инв. №6788, қўлёзма. Инв. №7416, инв. №1716813.
23. Bosworth С.Е. The Ghaznavids: 994–1040. Edinburgh University Press, 1963.
24. Treadwell L. Ibn Zafir al-Azdi's account of the murder of Ahmad ibn Isma'il al-Samani and the succession of his son Nasr // Studies in honour of Clifford Edmund Bosworth, in two volumes. Vol. 2. – Leiden – Boston – Köln: Brill, 2000. – P. 397–419.
25. Treadwell L. The Political History of the Samanid State. PhD thesis. – Oxford: University of Oxford, 1991. – 365 p.